

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“MUSIQA NAZARIYASI VA METODIKASI” KAFEDRASI

“XOR VA XORSHUNOSLIK ASOSLARI”

fanidan

AMALIY DARS ISHLANMASI

Tuzuvchi: katta o'qituvchi I.Qudratov
N.Haydarova

JIZZAX-2010

1-kurs 1-semestr

Mavzu: Talabalar ovozi turlarini aniqlash, partiyalarga bo'lib, tashkiliy ishlar (2 soatlik).

REJA:

1. Talabalar ovozini aniqlash:
2. Xor ijrochiligi turi, tuzilishi haqida tushunchalarni amalda ko'rsatish:
3. Xor jamoasini partiyalar bo'yicha joylashishi:
4. Vokal-xor mashqlar kuylash.

Darsning maqsadi: Xor jamoasini shakllantirish, ishtirokchilarni ovoz turlariga ko'ra partiyalarga bo'lish. Xor jamoasini tashkil qilish.

Darsning qisqacha mazmuni:

Xor jamoasi bilan birinchi mashg'ulotda ishtirokchilar ovozini yakka holda eshitib ko'riladi. Ularni ovoz diapozoni va tembr xususiyatlariga ko'ra partiyalarga bo'linadi. Talabalar xori aralash xor tuzilishida tashkil etiladi:

Soprano	-	ayollar yuqori ovozi;
Alt	-	ayollarning past ovozi;
Tenor	-	erkaklarning yuqori ovozi;
Bas	-	erkaklarning past ovozi.

- Xorni sahnada joylashtirish tartibiga ko'ra ishtirokchilar o'rni, qatori belgilanadi.

- Vokal-xor mashqlari yordamida talabalarni kuylash malakalari, sluxi, xotirasi kabilar aniqlanadi.

- Dirijyorlik ko'rsatmasi, auf takt, ijrosini boshlash, tugallash bo'yicha zarur tushunchalar beriladi.

Mavzu: Vokal kuylash elementlari: Nafas, nafas olish, uni sarflash, tovushni yo'llash, yarim-yopiq niqobdor kuylash (4 soatlik).

REJA:

1. Vokal-xor malakalari amaliy ko'rinishlari ustida ishlash:
2. Kuylash holati:
3. Ashulachilik nafasi, nafas, turlari:
4. Tovush hosil qilish, uni yo'llash:
5. Ansambllik, soz ustida ishlash:
6. Barcha qoida, talablarni bir asarni o'rganish misolida ifoda etish:

Darsning maqsadi: Talabalarni xor ijrochiligining eng muhim qoidalari, talabalar bilan tanishtirish. Ularda vokal-xor tarbiyasi ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish.

Darsning qisqacha mazmuni:

- Mashqlar tanlanadi. Vokal kuylash elementlari –tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, yarim yopiq tovushda kuylash, nafas olish, nafas turlarini bevosita o'zi ko'rsatib beradi.
- Bir xor asarini o'rganish jarayonida vokal kuylash elementlari haqidagi tushunchalar amaliyot bilan bog'lab tushuntirib boriladi.
- Oldingi darsda o'rganilgan ko'nikma malakalarni mustahkamlash yuzasidan o'quv-tarbiyaviy ishlar takrorlanadi.
- O'quvchilarga mustaqil vazifalar beriladi.

Mavzu: Auf takt. Ijroni boshlash, tugatish. Dirijyorlik ko'rsatmasi. Mashqlar kuylash asar o'rganish (4 soatlik).

REJA:

1. Xor ijrochiligida dirijyorning o'rni:
2. Dirijyorlik ko'rsatmasi:
3. Auf takt. Ijroni boshlash, tugallash:
4. Tovush hujumi.

Darsning maqsadi:

Talabalarda vokal-xor malakalarini shakllantirish. Vokal-xor ko'nikma va malakalarisiz xor jamoasi ijrochiligini tashkil etib bo'lmasligi haqida tushunchalarni amalda ko'rsatish.

Darsning qisqacha mazmuni:

- Jamoaviy ijroda dirijyorning vazifasi, unga qo'yiladigan talablarga tavsif berish. Dirijyorlik ko'rsatmalari, ijrolar, sxemalar, dirijyorlik ijrolarini legato, stakkato, non legato, shuningdek, dinamik belgilar PP, P, mf, f, ff krishendo, demuniendo kabi holatlaridagi tasvirini ifodalash.

- Ikki ovozli asar o'rganish, ko'uylash. Asar o'rganish davomida vokal-xor malakalari ustida ishlash.

- Talabalarni o'qituvchi –xor rahbari tomonidan ko'rsatib berilgan tarzda kuylashlariga erishish

Mavzu: Asarni fortepiano jo'rligida o'rganish, eshitib, o'qituvchi ovozigacha jo'r bo'lib kuylash, o'zini o'rtoqlarini eshitib kuylash (4 soatlik).

REJA:

1. O'rganiladigan asarni tinglash:
2. Asar mualliflari, g'oyaviy-badiiy mazmuni, asar xarakteri, janri haqida tushuncha:
3. Asarni qismlarga bo'lib, cholg'u jo'rligida o'rganish:
4. Kuylashda eshitib kuylash.

Darsning maqsadi:

Qo'shiq o'rganish bosqichlari haqida tasavvur hosil qilish. Kuylashda jo'r bo'lishning ahamiyatini his etish, eshitib kuylashga odatlantirish.

Darsning qisqacha mazmuni:

O'rganish uchun tanlangan asar fortepiano ijrosida eshittiriladi. Uning mavzui, mazmuni, mualliflari, janri, xarakteri, ijro xususiyatlari haqida aniq va qisqa tarzda ma'lumotlar beriladi.

Asar bevosita o'qituvchi yordamida qo'shiq o'rgatish metodlariga amal qilgan holda o'rganiladi.

Asar o'rganish davomida oldingi dars davomida o'rganilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga, vokal-xor elementlari, qoida va talablarga rioya etilishi nazorat qilib, kuzatib, tuzatib boriladi.

Mavzu: Gammalar kuylash. Sozlanish. Ansambllik. Asarni badiiy ijrosi ustida ishlash (4 soatlik).

Darsning maqsadi: Xor ishtirokchilarini ovozini sozlash, unqatorni yoddan kuylash, sozlanish va ansambllikni his qilish ko'nikmalarini o'stirish.

REJA:

1. Do major gammasini yuqoriga va pastga jo'rli va jo'rsiz kuylash:
2. Asosiy uchtovushlikni kuylash:
3. Ijroda sozlanish –musiqa soziga, tempiga, dinamikasiga sozlanish:
4. Ansambllik ustida ishlash:
5. Asar badiiy ijrosi ustida ishlash.

Darsning qisqacha mazmuni:

Mashq sifatida gammalar kuylash talabalarni major, minor tonalliklarni his etish, interval va akkordlarni erkin, toza intonastiya qilishlariga yordam beradi.

Ansambllik va soz xor ijrosining tayanch asoslaridan bo'lib, har bir mashg'ulotda ularni shakllantirish o'qituvchi nazarida bo'lishi talab etiladi.

Semestr davomida o'rganilgan asarlar takrorlanadi, badiiy, sifatli ijrosi ustida ishlanadi.

Mavzu: Kuylashda retm, temp, ladni his qilish. Dirijyor ko'rsatmasiga rioya qilib kuylash. Ikki ovozli asar o'rganish.

Darsning maqsadi: Xor ishtirokchiligida ritm, tempning ahamiyatini to'g'ri idrok etish, kuylashda ladni his qilish, shuningdek dirijyorlik ijrolariga muvofiq kuylash malakalarini hosil qilish.

REJA:

1. Ritm haqida tushunchalarni aniqlashtirish:
2. Ijroda tempning ahamiyatini ko'rsatish:
3. Asar xarakterini his etishda ladni tutgan o'rni:
4. Ikki ovozli asar o'rganish.

Darsning qisqacha mazmuni:

Ikki ovozli asar har bir ovoz partiyasi bilan alohida, ya'ni, bir ovozlar bilan alohida, ikki ovozlar bilan alohida o'rganiladi. Asarni o'rganish jarayonida ritmi, tempi, lad xususiyatlari musiqiy tahlil qilib boriladi. Asar ma'lum darajada o'rganilgandan so'ng birinchi, ikkinchi ovozlar birgalikda qo'shib kuylattiriladi. Asarni o'rganishda dirijyorlik ijrolariga qarab kuylashga o'rgatish diqqat-e'tibor qaratiladi.

Mavzu: Vokal-xor mashqlari. Ovoz kuchi, tembri, tovush hosil qilish va yo'llash. Ikki ovozli asarni o'rganishni davom ettirish.

Darsning maqsadi: Xor ishtirokchigida vokal-xor mashqlarini o'tkazishni maqsad va vazifalari, uning ovoz kuchi va tembrini barqarorlashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatish.

REJA:

1. Vokal-xor mashqlarini maqsad va vazifalari. Ularni tanlash tamoyillari:
2. Ovoz kuchi, tembri tavsifi:
3. Tovush hosil qilish va yo'llash malakalari:
4. Ikki ovozli asar o'rganish va kuylash.

Darsning qisqacha mazmuni:

Mashg'ulot vokal-xor mashqlari kuylash bilan boshlanadi. Vokal-xor mashqlari mavzuga mos ravishda maxsus tanlangan bo'ladi. Vokal-xor mashqlarini asar mazmunidan, o'rganish xususiyatlaridan kelib chiqib tanlash yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi. So'ngra ikki ovozli asarni o'rganish davom ettiriladi.

Bu jarayonda soz, ansambllik, dikstiya, intonastiya, temp, dinamik kabilar e'tiborda tutiladi.

Mavzu: Mashqlar. Temp, diktsiya, intonatsiya, registrlarni tekisligi. Asarni badiiy ijrosi.

Darsning maqsadi: Asar ijrosida tempning ahamiyati, asar g'oyaviy-badiiy mazmuni va emostional ta'sirchanligini belgilashda intonatsiya, diktsiya, registrlar tekisligini ahamiyatini ko'rsatish.

REJA:

1. Temp –asar xarakterini belgilovchi omil:
2. Dektsiya, intonatsiyaga amaliy mashqlar:
3. Registrlar tekisligi tavsifi:
4. Asar badiiy ijrosi ustida ishlash.

Darsning qisqacha mazmuni:

Temp, diktsiya, intonatsiya, registrlar tekisligini mashq va asar o'rganish, kuylash jarayonida amaliy tarzda ko'rsatib borish. Har ishtirokchilari tomonidan amalda qo'llanishni kuzatish. Nazariy ma'lumotlarni eslatgan holda ularni ijrochiligidagi holatni o'rganish kerak ko'nikma va malakalar hosil qilish.

Asar badiiy ta'sirchan ijrosi ustida ishlash. Vokal-xor malakalariga e'tibor berish.

Mavzu: Mashqlar. Nafas ustida ishlash. Intervallar kuylash. A'kapella asar o'rganish va kuylash (6 soatlik).

Darsning maqsadi: Mashqlar kuylash jarayonida nafas ustida ishlash. Talabalarni to'g'ri nafas olishga o'rgatish, jo'rsiz kuylash ko'nikma va malakalarini rivojlashtirish.

REJA:

1. Katta tarkibga nafas olish, zanjirband nafas:
2. Intervallar kuylash:
3. A'kapella asarni o'rganish, partiyalar bilan alohida va birgalikda kuylash:
4. Vokal-xor malakalari ustida ishlash.

Darsning qisqacha mazmuni:

Nafas –xor ijrosining asosi bo'lib, har bir mashg'ulotda uni rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

A'kapella asar qismlarga bo'lib fortepiano jo'rligida o'rganiladi. Har bir qism avval jo'rli, so'ngra jo'rsiz tarzda o'rganiladi. Asar o'rganish davomida ifoda vositalari –dinamika, dirijyorlik ko'rsatmalari, dikstiya, intonastiya kabilarga alohida e'tibor berib boriladi.

2-kurs 3-semestr

Mavzu: Vokal-xor mashqlar. Stakkato, ligato, non ligato.

**Aralash xor uchun yozilgan asarlarni (1 a'kapella 1 jo'rli)
o'rganish va kuylash. (4 soatlik)**

Darsning maqsadi: Xor ijrochiligida juda muhim bo'lgan Stakkato, ligato, non ligato kuylash malakalarini shakllantirish. Asarlar kuylash jarayonida ularni amalda qo'llay olish.

REJA:

1. Stakkato kuylash uslubiga xos mashqlar:
2. Ligato kuylashga xos mashqlar:
3. Non ligato kuylashga mos mashqlar:
4. Stakkato, ligato, non ligato uslublarni asar o'rganish va kuylash jarayonida qo'llash.

1. Qo'shiq yoki mashq kuylayotganda ohangni bir tekis, bog'lab yangrashi ligato kuylashga to'g'ri keladi.

- non ligato kuylashda har bir ohang, jumla yoki so'zlar alohida, bir-biriga bog'lanmasdan yangrashi non ligato kuylashga xosdir.

- jummalarni uzib-uzib ijro etilishi stakkato – ta'kidlab ijro etilishi esa markato deyiladi.

- ligato kuylashga misol:

- non ligato ga misol:

- stakkato ga misol:

- markato ga misol:

2. Tanlangan asarlar fortepiano jo'rligida o'rganiladi. Ovoz sozlash mashqlari va asarni o'rganish jarayonida talabalar diqqati asardagi ligato, non ligato, stakkato uchraydigan o'rinlarga qaratiladi. Asar qo'shiq o'rganish qoidalari asosida, uning xarakteri, ifoda vositalariga e'tibor bergan holda o'rganiladi. Xonandalarning ko'p ovozda kuylash malakalarini o'stirish, ansambllik, soz, dirijyorlik ijrolariga monand hamda musiqani eshitib kuylashlariga e'tibor qaratiladi.

Mavzu: Tovush hujumi. Gammalar (major-minor) kuylash.
Asarlar o'rganishni davom ettirish. (4 soatlik)

Darsning maqsadi: Xor ishtirokchilarini qo'shiq kuylashga kirishishdan oldin nafas olib, unga ma'lum tayyorgarlik bilan va asarning xarakteriga qarab tovush hosil qilishga o'rgatishni ko'zda tutadi.

REJA:

1. Tovush hujumi atamasiga tavsif:
2. Tovush hujumi turlari:
3. Tovush hujumining asar xarakteriga bog'liqligi:
4. Tovush atakasi ifodali ijro vositasi.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

- Tovush hujumi turlariga xos mashqlar tanlanadi. Ovoz sozlash mashqlari uchun ajratilgan vaqtda ularni har biriga qisqa ta'riflar berilgan holda avvalo o'qituvchi o'zi kuylab ko'rsatishi va talabalarni o'qituvchi ijrosiga taqlid qilib kuylashi asosida ularni o'zlashtirish davom ettiriladi;

- Qo'shiq kuylashga kirishishda nafas olish tugab, tovushni boshlanishi **ataka** – hujum deyiladi.

Ataka ital'yancha "attakare" –hujum qilmoq ma'noni bildiradi. Vokal-xor ijrochiligida muhim hisoblanadi.

Tovush hujumining yumshoq, qattiq va nafas olgandan so'nggi turlari bo'ladi.

Tovushning yumshoq, mayin boshlanishi **yumshoq ataka** deyiladi. Yumshoq atakada ovoz pardalari nafas chiqayotganda kuchsiz jipslashadi.

- Tovushning qattiq, quqqisdan chiqishi **qattiq ataka** deyiladi. Qattiq atakada ovoz pardalari nafas chiqishdan oldin qattiq jipslashadi;

- Nafas olingandan so'nggi hujumda ovoz pardalari nafas chiqib boshlagandan so'ng kuchsiz jipslashadi.

Tovush hujumi asar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu o'z navbatida xonandalarni asarni xarakteridankelib chiqib kuylashga kirishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oldingi darslarda o'rganilgan asarlar bilan ishlash davom ettiriladi. Ovoz partiyalari bilan alohida, ma'lum qismlar o'rganilgach birgalikda kuylanadi. Dirijyorlik qoidalariga amal qilingan holda kuylashga diqqat qaratiladi.

**Mavzu: Kuylash holati, og'izni ochish. Artikulyatsiya apparatining ishlashi.
A'kapella asarni o'rganish.**

Darsning maqsadi: Xor ijrochiligida xonandalarning kuylash holati, ayniqsa og'izni ochish vokal-xor ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning eng muhim holatlaridandir. Xor ishtirokchilarini unga tayyorlash amaliy mashg'ulotning maqsadidir.

REJA:

1. Qo'shiq aytish ko'rsatmasi:
2. Tovush hosil qilish:
3. Artikulyatsiya apparatining ishlash holati va uning qo'shiq kuylashdagi o'rni.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Qo'shiq aytishdan oldin xonandalar unga tayyor bo'lishlari kerak. Bunda kuylovchilar holati zarur holat bo'lib, bu ikki xil bo'ladi:

- turib kuylash;
- o'tirib kuylash.

Turib kuylaganda gavgani, boshni to'g'ri, erkin tutish, ko'krak qafasini salgina ko'tarish va oldinga chiqarish, kiftlarini to'g'ri tutish qo'llar pastga tushirilgan bo'lishi kerak.

O'tirib, kuylashda bosh va gavgani erkin tutilishi, oyoqlar erga bir xil me'yorda bosilishi, qo'llar tizzalarga qo'yilishi lozim.

Xor ijrochiligida turib kuylash eng qulay holat hisoblanadi. Artikulyatsiya – lotincha “artikulyatsiya” –bo'linish degan ma'noni bildiradi. Dikstiyani aniq (tushunarli) yo noaniq bo'lishi artikulyatsiya apparatining faol va to'g'ri yoki aksincha bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Xorda olib boriladigan ma'lum mashqlar artikulyatsiyani faollashtiradi va rivojlantiradi.

- undosh va unli tovushlarni aniq eshutilishi ustida ishlash;
- so'z oxirida keladigan undoshlarni aniq talaffuz qilish;
- og'iz holatining to'g'riligi;
- lab, tish faolligi uchun mashqlar;
- til faolligini oshiruvchi mashqlar;
- unli tovushlarni undosh tovushlar bilan qo'shib mashq qilinsa;

Maxsus mashqlar vokal-xor mashqlari kuylash va ashula aytish paytida e'tiborga olinadi. Har bir mashqlarga izohlar berish va ko'rsatib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

A'kapella asar so'zi yoziladi. Asar mazmuni, mualliflari haqida kerakli ma'lumotlar talabalar diqqatiga havola etiladi. Fortepiano ijrosida eshittiriladi va jummalarga bo'lib, har bir partiya bilan alohida-alohida va ma'lum bir jumla o'rganilgach 1 partiyalar – soprano – tenor, al't – bas qo'shib ijro etiladi. Asarni o'rganish jarayonida dikstiya, artikulyatsiya, tovush hujumi, og'izni ochish, nutq va tovush talaffuzlariga e'tibor berib boriladi.

Har bir partiyanı xususiy va umumiy ansambligi, melodik, garmonik ansamblilik, temp, xarakter, dinamik belgilarga rioya etish diqqat markazida bo'lishi talab etiladi. Asarni bir bandi o'rganilgach uni musiqa jo'rligisiz aytib berish yaxshi natija beradi.

ADABIYOTLAR:

1. SH.Ro'ziev. "Xorshunoslik". –T.: -G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, -1987-yil.
2. 1-7-sinf musiqa darsliklari.
3. A.Hasanov. Maktabda ashula. T.: -O'qituvchi, -1988-yil.

**Mavzu: Vokal-xor mashqlar –krihendo, demuniendo, fermato.
Maktab repertuariga xos bir asar o'rganish va kuylash.**

Darsning maqsadi: Qo'shiqni ifodali ijrosida va badiiy mazmunli chiqishida musiqani ifoda vositalari alohida o'rin tutadi. Xor ishtirokchilarini qo'shiq xarakterini ochishga xizmat qiluvchi (krihendo), (demuniendo) va fermato belgilari bilan tanishtirish.

REJA:

1. Krihendo belgisi va uni amalda qo'llanilishi:
2. Demuniendo belgisi tavsifi va uning amalda qo'llanilishi:
3. Fermato belgisi tavsifi va uning amalda qo'llanilishi.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

- Krihendo belgisi bilan ifodalanadi va u ohangni sekindan kuchaytira borish belgisi hisoblanadi. o'ziga xos nъyuans (bezak) bo'lib, ijroni ifodaliligiga xizmat qiladi;

- Demuniendo esa qattiq f yoki f f dan mf yoki R ga sekinlatish. Tovush kuchini susaytirishni bildiradi. Bu belgilar bir ovoz partiyasida yoki ikki ovoz partiyasida bir vaqtda qo'llanilishi mumkin;

- Fermato belgisi ma'lum bir tovushni asar xarakteriga muvofiq cheklanmagan tarzda ushlab berishini ko'rsatadi;

- Maktab repertuariga xos asar xor jamoasiga o'rgatiladi. Asarni o'rganish davomida va vokal-xor mashqlari jarayonida yuqoriagi dinamik belgilar e'tiborda tutiladi. Amaliy ish jarayonida ushbu belgilarni ishtirokchilarga yaxshi tushunarli bo'lib qolishlari maqsad qilib qo'yiladi.

Asarni o'rganish esa xor jamoasi bilan ishlash amaliyoti asosida olib boriladi.

Sof undosh kuylash, asar matni, uni g'oyaviy-badiiy emostional ijrosi ustida ishlashga diqqat qaratiladi.

Mavzu: Ashula nutqi, intonatsiya, ansambllik ustida ishlash. O'rganilayotgan asarlarni badiiy ijrosi ustida ishlash.

Darsning maqsadi: Xor ijrochiligida nutq talaffuzning ahamiyati, intonatsiya va ansambllik to'g'risida tushunchalarni singdirishdan iborat.

REJA:

1. Ashula nutqi haqida tushuncha:
2. Nutq talaffuzi, intonatsiya, ularni ahamiyati:
3. Ansambllik va uning turlari:
4. Jamoa bilan o'rganilayotgan asarlar badiiy ijrosi ustida ishlash.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

- Musiqa san'atining boshqa fanlardan eng muhim farqli jihatlaridan biri shundaki, u o'z mazmunini ohanglarda ifoda etadi. YA'ni musiqa, tovush, ohang orqali ifoda etiladi.

Bu o'rinda musiqiy tovushlarni o'ziga xos ifoda belgilaridan foydalaniladi.

Qo'shiqchilik san'ati musiqa va adabiy poetik ijodiyotni uzviy birlashtiruvchi san'atdir.

Asardagi adabiy matnni ifodasi **dikstiya** deyiladi. So'z va musiqa uyg'un holatda birlashib badiiy obraz yaratadi. Zero, dikstiya aniq so'z talaffuz bo'lish bilan birga ijrodagi badiiy ifoda ham hisoblanadi. Nutq talaffuzi uch xil bo'ladi: qo'shiqchilik, kundalik turmush va sahna nutqi.

Intonatsiya – bu tovushlarni, interval va akkordlarni o'z balandligida aniq talaffuz qilishni bildiradi. Xor ijrosida bu eng muhim elementlardan hisoblanadi.

Ansambllik – ansambl so'zi fransuzcha “ensemble” so'zidan olingan bo'lib birgalikda, uyg'unlik ma'nolarini bildiradi. Ansambllikka erishish xor savodi shakllantirishda muhim. Ansambllikni temp, ritm, melodik, garmonik kabi turlari mavjud.

Asarni badiiy ijrochi ustida ishlash – ko'rib o'tilgan elementlarni amalda to'g'ri va o'rinli qo'llash orqali amalga oshiriladi. Repertuardagi asarlar bilan ishlash jarayonida ularga amal qilish talab etiladi.

Mavzu: Ritmik, diktsion, tembr, intonatsiya ansamblligi.
Yangi 2-3 ovozli, jo'rli asarni o'rganish (4 soatlik).

Darsning maqsadi: Ansambllik va ularning turlari, amaldagi ko'rinish va qo'llanishi bo'yicha talabalarning tushunchalarini mustahkamlash.

REJA:

1. Ansambllik turlari:
2. Ansambllik turlariga tavsif:
3. Xor ansamblligi elementlari:

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Xor ansambli musiqaviy ansambllarning eng qiyin turiga kiradi. Musiqa ansambllari turli xil bo'ladi:

1. duet, 2. trio, kvartet, kvantet, sekstet, oktet va hokazo. Xor va orkestr ham ansamblga kiradi. Ulardagi xonandalar va sozandalar partiyalari ham ansambllik asosida birlashadi.

- Xususiy ansambl – bir partiyadagi ovozlar uyg'unligi, umumiy ansambl esa barcha partiyalarning hamohangligidir.

Xorda to'liq ansambl barpo etish juda ko'p faktorlarga bo'g'liq:

1. Gorizontal intonatsiya;
2. Ovozlar tembri;
3. Ovoz kuchi (dinamika);
4. Tovush cho'zimi (ritm);
5. Harakat birligi (agogika);
6. Diktsiya birligi (orfoepiya);
7. So'z ansambli;
8. Tessitura ansambli.

- Xorda xor va solist o'rtasida ansambllik;

- Xor musiqa jo'rli va solist o'rtasidagi ansambllik;

- Tabiiy va sun'iy ansamblliklar bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida ularning barchasi amaliy misollar orqali izohlanadi.

Xor jamoasi bilan o'rganiladigan asarlar bilan ishlashda alohida e'tibor berib boriladi. Asar konstertmeystr jo'rligida (fortepiano) o'rganiladi.

Mavzu: Melodik va garmonik eshituvni o'stirish.

Xor asari bilan ishlash.

Darsning maqsadi: Melodik va garmonik eshituv haqida tushuncha. Melodik va garmonik eshituvni asarlar o'rganish va kuylash jarayonida anglashga o'rgatish.

REJA:

1. Melodik eshituv. Amaliy misollar:
2. Garmonik eshituv. Amaliy misollar:
3. Asar 1-2 ovoz partiyalari bilan ishlash. Asarning badiiy ijrosi ustida ishlash:

Mashg'ulotning qisqacha mazmuni:

Xor ishtirokchilarining xor asarini o'rganishlari va kuylashlarida ularning musiqiy eshituv (sulhlari) g'oyat muhim omil hisoblanadi. Musiqiy eshituv musiqa pedagogikasida ancha chuqur o'rganilgan. Musiqiy eshituvi (sulhi) bo'lmagan odam bo'lmaydi. Ba'zilar u sustroq bo'lishi, ba'zilar undan etarli foydalanaolmasliklari mumkin. O'qituvchi xor bilan ishlash jarayonida o'quvchilar yoki har bir xonandani musiqiy eshituvini kuzatib borishi lozim bo'ladi. Musiqiy eshituvni o'stirish uchun ma'lum mashq majmualari ishlab chiqilgan.

- Melodik eshituvni o'stirishda ashulani ma'lum bir jumlasini musiqa asbobida chalinadi yoki ma'lum ritmik cho'zimlar ijro etiladi, ishtirokchilar esa qaytaradilar. A'kapella asarlar kuylash ham musiqiy eshituvni shakllanishiga samarali ta'sir etadi.

Garmonik eshituv esa interval va akkordlarni yaxshi eslab qolish va qaytarish orqali shakllanib boradi. Garmonik eshituv ikki va ko'p ovozli asarlarni kuylashda qo'l keladi.

2 ovozli asarni o'rganish va kuylash jarayonida xor ishtirokchilarini melodik jummalarni aniq, ravon intonatsiya qilishlari, shuningdek interval va akkordlarni yaxshi talaffuz qilishlariga ahamiyat beriladi.

**Mavzu: Ikki ovozli mashqlar kuylash.
A'kapella (xalq qo'shig'i) kuylash, solfedjiolash.**

Darsning maqsadi: A'kapella asar bilan ishlashning o'ziga xosligi, kuylash va asarni o'rganishda sol'fedjiolash uslubi bilan tanishtirish.

REJA:

1. A'kapella asar haqida qisqacha suhbat:
2. Asarni eshittirish:
3. Ovoz partiyalari bilan ishlash:
4. Sol'fedjiolash.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Ikki ovozli qo'shiqlar kuylashga o'tish bosqichi hisoblanadi. Ikki ovozlikka o'tishda oddiy, pastki va o'rta registrda mashqlar tanlash va ularni sol'fedjiolash qilish yaxshi samara beradi. Terstiya, sof kvarta, sof kvinta, seksta singari ohangdosh intervallar dastlabki mashqlar uchun qulay bo'ladi.

Interval mashqlarni musiqa asbobida eshitib, ovoz bilan takrorlab borish mumkin. So'ngra uni sekin asta murakkablashtirib borish lozim.

- Ikki melodik yo'nalanmani yondosh harakati
- A'kapella asar o'zbek xalq qo'shig'i: "YOshligim" SH.YOrmatov bolalar xoriga moslashtirgan.

Asarni o'rganish rejasi:

- Asar mazmuni haqida qisqa suhbat (bunda matn mazmuni, asarni qaysi xor ijrosiga mo'ljallanganligi, muallifi haqida so'z boradi).
- Asar konstertmeystri ijrochida (fortepianoda) tinglanadi.
- Ovoz partiyalari yozilgan tarqatma material xor ishtirokchilariga tarqatiladi.
- Ovoz partiyalari bilan alohida-alohida o'rganishga kirishiladi.
- Sol'fedjiolash, so'ngra so'zi bilan kuylash uslubidan foydalaniladi.
- Asar jummalarga bo'lib o'rganiladi, bir jumlani bir ovoz o'rgangach ikki ovoz bilan o'rganiladi va so'ngra ikki ovoz birgalikda shu jumlani kuylashadi va shu tariqa asar oxirigacha o'rganiladi.

Mavzu: Vokal-xor mashqlari.
Rejalashtirilgan asarlar (jo'rli-jo'rsiz) bilan ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: Asarni xor jamoasiga o'rgatish bosqichlari bilan tanishtirish. Asarni badiiy ijrosi ustida ishlash.

REJA:

1. Asarni xor jamoasiga o'rgatish bosqichlari:
2. Asarni o'rganishda ularni umumiy musiqiy-nazariy, vokal-xor jihatdan tahlil qilishning ahamiyati:

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Semestr davomida o'rganish uchun tanlangan asarlarni xorga o'rgatish, ya'ni xor jamoasi bilan ishlash davom ettiriladi. Ma'lum bir asarni xorga o'rgatishdan oldin uni xor rahbari o'zi mustaqil o'rganadi. Bu shartli ravishda uch bosqichdan iborat bo'ladi.

- Asarni to'liq partiturasini bilan o'rganish (musiqqa, ashula qismi, ovoz partiyalari yod olinadi, dirijyorlik holatlariga diqqat qaratiladi);
- Asarni jamoaga o'rgatish rejasi tuziladi;
- Asarni turli tadbir yoki konstertlarda ijro etishga tayyorlash.

Asarni auditoriyada o'rganish ham umumiy holda uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Asarni eshittirish;
2. Asarni o'rganish;
3. Mustahkamlash va badiiy ijro ustida ishlash.

Xor asarini o'rganishga kirishishdan oldin vokal-xor mashqlari kuylanadi.

Qo'shiq o'rganishda qo'shiq ma'lum bir qatori avval fortepianoda chalinadi, rahbar uni o'z ovozi bilan kuylaydi.

- SHu qism xor partiyasi bilan birgaga aytiladi;
- Keyingi qo'shiq qatori shu tariqa o'rganilgach, birinchi qator bilan qo'shib ijro etiladi;
- Qiyin jumlar solifedjio qilinadi;
- Asar shu taxlit oxirigacha o'rganilgach, endi uning butun jamoa bilan badiiy ijrosi ustida ishlashga kirishiladi. Bunda asarni xarakteri (temp), ifoda vositalari (dinamika, n'yuans, o'ziga xos buyoqlar) ga e'tibor qaratiladi;
- Oxirgi bosqich – sayqal berish. Bunda har bir ijrochining asar mazmunini to'la tushungan, his qilgan holda yoddan kuylashi kerak bo'ladi.

**Mavzu: Vokal-xor mashqlar. Marsh xarakteridagi asar o'rganish
("Porlar bayroqlar". X.Izomov musiqasi).**

Mashg'ulot maqsadi: Marsh qo'shiqlarni o'rganishda asarni o'ziga xos xarakterini his etish, qat'iy, shiddatkor ruh, qattiq tovush hujumi barpo etish malakalarini hosil qilish.

REJA:

1. Vokal-xor mashqlar kuylash;
2. "Porlar bayroqlar" asari haqida uni mualliflari haqida ma'lumot;
3. Asarni fortepianoda eshitish;
4. Ovoz partiyalari bilan asarni alohida-alohida o'rganish;
5. Asarni badiiy ijrosi ustida ishlash.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Ovoz sozlash mashqlari uchun qattiq tovush hujumiga monand mashqlar tanlanadi.

- asar yozilgan (nota yozuvi) plakat ishtirokchilarga ko'rinarli holda osib qo'yiladi;
- ovoz partiyalari yozilgan tarqatma material xonandalarga tarqatiladi;
- asar mazmuni va mualliflari haqida qisqacha suhbat o'tkaziladi;
- asar fortepiano ijrosida tinglanadi;
- jumalalarga bo'lib o'rganiladi.

Asar shu taxlit oldingi amaliy mashg'ulotlardagi kabi xorga asar o'rgatish amaliyotiga amal qilgan holda o'rganiladi. Asar ma'lum darajada o'rganilgach, so'ngra asarga sayqal berish, ijrochilarning qo'shiq so'zlarini yoddan kuylashlari orqali amalga oshirishini talab qiladi. Bunda xonandalar dirijyorlik harakatlariga to'liq rioya qilib kuylashga muvoffiq bo'ladilar.

Asarni badiiy ijrosida to'g'ri talaffuz (matn), intonatsiya, unli tovushlarni aniq, ta'sirchan, jarangli, undosh harflarni qattiq, tez va aniq, ayniqsa so'z oxiridagilarni eshitalishiga e'tibor qilishi lozim bo'ladi. Musiqiy iboralarni boshlanishi, avj, tugallanishlari uyg'un birlashuvi, temp, dinamik belgilar ifodaliligiga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalarni nazariy bilimlarini oshirib borishni ham unutmaslik zarur.

Mavzu: Vokal-xor mashqlari. Tovush hosil qilish. Ansambllik, intonatsiya. Badiiy ifodalarni ijro amaliyotda qo'llash.

Mashg'ulot maqsadi: Jamoaviy ijrochilik malaka va ko'nikmalarni shakllantirish. Tovush hosil qilishning amaliy jarayondagi ko'rinishlarini ifoda etish va ularni talabalar tomonidan to'liq tasavvur etishlariga erishish.

REJA:

1. Vokal-xor mashqlari:
2. Tovush hosil qilish bosqichlari:
3. Ansambllik va intonastiyani takomillashtirish mashqlari:
4. Badiiy ifodalarni qo'llash.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

- Vokal-xor mashqlar kuylanadi. Intervallar –terstiya, kvarta, kvinta, seksta, uch tovushliklar va ikki ovozli mashqlar kuylanadi;

- Tovush ovoz apparatining mahsulidir. O'pkadan chiqayotgan havo hiqildoqdagi tog'aylar orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi. Tovushning baland-pastligi, yo'g'on-mayinligi, qalinligi, til-halqum hiqildoq muskullarini qisqarishiga bog'liq bo'ladi.

Ovoz apparati tomoq, hiqildoq, xalqum, nafas ravog'i, ovoz pardalari, rezonatorlar, har xil mushaklardan iborat.

SHu o'rinda rezonatorlarga ta'rif beriladi: Rezonatorlar tovushni kuchaytiruvchi a'zolar bo'lib, ular ikki xil bo'ladi: ***yuqori*** – bosh rezonatorga ovoz pardalari tepasida joylashgan hiqildoq, burun, ovoz bo'shlig'i kiradi, ***pastki*** – rezonatorga, ya'ni ko'krak rezonatorga ko'krak qafasi (traxeya, bronxlar) kiradi.

Asarlar bilan ishlash jarayonida ansambllik va intonastiyani tozaligi va sofligiga har doimgidek e'tibor qaratiladi.

Asarni o'rganish jarayonida har bir ovoz ustida alohida, birgalikda ishlash usullari orqali amalga oshiriladi.

Asar badiiy ijrosi ustidagi ishlar qo'shiq o'rganishning o'ziga xos yakuni bo'ladi.

Mavzu: Progon. Talabalar o'zlashtirishlarini baholash.

Mashg'ulot maqsadi: Semestr va yil davomida o'rganilgan asarlarni namoyish qilish va shu o'rinda talabalarni o'zlashtirishlarining yakuniy xulosalarini chiqarishdan iborat.

REJA:

1. Ko'rik mashg'ulotga tayyorgarlik:
2. Ko'rik mashg'ulot rejasi:
3. Dastur reja asosida dastur programmasini namoyish etish:
4. Dastur chiqishni tahlil qilish va baholash.

Mashg'ulotning qisqa mazmuni:

Ko'rik mashg'ulotga bir necha dars oldindan tayyorgarlik ko'rilgan bo'ladi. Tayyorgarlik davrida ijro qilinadigan asarlar ro'yxati belgilanadi, o'ziga xos dastur qilinadi. Dasturda ijrochilarni kiyinishlari, sinf xonasini tayyorlash masalalari o'z aksini topadi. Konstertmeystr, fortepiano asbobini sozligi, dirijyorning tayyorligi muhim hisoblanadi.

Progon (ko'rik mashg'ulot) ra taklif qilingan professor-o'qituvchilar talabalar chiqishini tahlil qiladilar va baholaydilar. Talabalarni baholashda ularni darslarga qatnashishlari, fan bo'yicha topshiriq, mustaqil ishlarni qay darajada bajarib kelganliklari va eng asosiysi o'rganilgan asarlarni o'zlashtirganlik darajalari va ijrochilik qobiliyatlari hisobga olinadi.

Mavzu: Xor ijrochiligida vokal-xor malakalari (nafas, tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, auft takt, dinamika, altiratsiya, intanatsiya ustida ishlash) (4 soatlik).

REJA:

1. Vokal-xor malakalari amaliy ko'rinishlari ustida ishlash:
2. Kuylash holati:
3. Ashulachilik nafasi, nafas, turlari:
4. Tovush hosil qilish, uni yo'llash:
5. Ansambllik, soz ustida ishlash:
6. Barcha qoida, talablarni bir asarni o'rganish misolida ifoda etish:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Ro'ziev. Xorshunoslik. T.: -O'qituvchi, -1987-y. 167-bet.
2. N.Sharafieva. Xorshunoslik. T.: -G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1987-y. 24-bet.
3. Ro'ziev N.B. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. I-II-III-kitoblar. T.: -O'qituvchi, - 1976-1978-y.

DARSNING MAQSADI:

Talabalarni xor ijrochiligining eng muhim qoidalari, talabalar bilan tanishtirish. Ularda vokal-xor tarbiyasi ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish.

DARSNING QISQACHA MAZMUNI:

- mashhlar tanlanadi. Vokal kuylash elementlari –tovush hosil qilish, tovushni yo'llash, yarim yopiq tovushda kuylash, nafas olish, nafas turlarini bevosita o'zi ko'rsatib beradi.
- bir xor asarini o'rganish jarayonida vokal kuylash elementlari haqidagi tushunchalar amaliyot bilan bog'lab tushuntirib boriladi.
- oldingi darsda o'rganilgan ko'nikma malakalarni mustahkamlash yuzasidan o'quv-tarbiyaviy ishlar takrorlanadi.
- o'quvchilarga mustaqil vazifalar beriladi.

Mavzu: Kuylashda ritm, temp, ladni his qilish. Dirijyor ko'rsatmasiga rioya qilib kuylash. Ikki ovozli asar o'rganish. (4 soat).

REJA:

1. Ritm haqida tushunchalarni aniqlashtirish:
2. Ijroda tempning ahamiyatini ko'rsatish:
3. Asar xarakterini his etishda ladni tutgan o'rni:
4. Ikki ovozli asar o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston vatanim manim. I-II-III-IV-kitoblar. T.: -Mehnat, -1997, 1999-y
